



INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdikarimov Islombek Ibragimovich

“Ma'mun universiteti” Nodavlat ta'lim
muassasasi o'qituvchisi,

Urgach davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss2/a39

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon iqtisodiy inqirozning butun jamiyatga va oliy ta'lim tizimiga ta'siri, globallashuv davrida oliy ta'limning rivojlanish xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Bunda iqtisodiy inqirozning oqibatlarini bartaraf qilish uchun universitetlarga ko'rsatish mumkin bo'lgan yordam, xususan, universitetlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash jamg'armalari, universitetlar tomonidan amalga oshiriladigan loyiha faoliyatini tashkil qilishga yordam berish lozim ekanligi batafsil yoritib berilgan. Maqolada so'nggi yillarda zamonaviy jamiyatda oliy ta'limning roli haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, oliy ta'lim tizimi, jahon iqtisodiy inqirozi, Butunjahon konferensiya, YUNESKO, xususiy sektor, tadqiqot universitetlari, ta'limning globallashuvi.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ

Абдикаримов Исламбек Ибрагимович

Преподаватель негосударственного образовательного
учреждения” университет Мамун”,

Независимый исследователь urgachского государственного университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности развития высшего образования в эпоху глобализации, влияние мирового экономического кризиса на общество в целом и систему высшего образования в частности. При этом подробно освещено, что для преодоления последствий экономического кризиса необходимо оказать возможную помощь университетам, в частности, фондам экономической поддержки научно-исследовательской деятельности университетов, помочь в организации проектной деятельности, осуществляемой университетами. В статье также приводится информация о роли высшего образования в современном обществе в последние годы.

Ключевые слова: глобализация, система высшего образования, мировой экономический кризис, Всемирная конференция, ЮНЕСКО, частный сектор, исследовательские университеты, глобализация образования.

DISTINCTIVE FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM IN THE CONDITIONS OF AN INNOVATIVE ECONOMY

Abdikarimov Islombek Ibragimovich

Teacher of the non-governmental educational
institution” Ma'mun University”,

Urgach State University independent researcher

Annotation. This article will talk about the features of the development of higher education in the era of globalization, the impact of the world economic crisis on society as a whole and on the system of Higher Education. In this case, it is highlighted in detail that in order to eliminate the consequences of the economic crisis, it is necessary to provide assistance to universities, in particular, funds for economic support of research activities of universities, to help organize project activities carried out by universities. The article also cites information about the role of higher education in modern society in recent years.

Keywords: globalization, higher education system, World Economic Crisis, World Conference, UNESCO, private sector, research universities, globalization of Education.

Kirish. Yangi texnologiyalarni yaratish hamda tarqatish tizimining asosiy elementi oliy ta'lim sohasi hisoblanadi. Jahon miqyosida 1990-

yillarning oxiridan boshlab oliy ta'limda chuqur o'zgarishlar ro'y berdi, bu esa o'nlab yillar davomida akademik muassasalarning shakllanishi va

rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi. O'zgarishlarning asosiy omillari deyarli har bir mamlakatda oliy ta'limning kengayishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi va ularning oliy ta'limga ta'siri hisoblanadi. Globallashuv jarayoni nafaqat jahon iqtisodiyoti va madaniyatini shakllantiradi, balki shubhasiz, oliy ta'limga ham ta'sir qiladi. Bunda bir zumda aloqa amalga oshiriladigan tadqiqotlar va boshqa ma'lumotlar butun dunyo bo'ylab tarqatiladigan global bilim tizimining paydo bo'lishi; global ilmiy muloqotning asosiy tili sifatida ingliz tilidan foydalanish hamda axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish kabilar asosiy omillar bo'lib xizmat qiladi.

Globallashuv – bu butun dunyo bo'ylab iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy integratsiya hamda birlashish jarayonidir [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XXI asrning asosiy muammolaridan biri oliy ta'limning kengayishi bilan bog'liq. XX asr boshlarida Lotin Amerikasidagi kabi ba'zi tizimlar ommaviy ravishda oliy ta'limga kirishni talab qildi va bir qancha mamlakatlar, xususan, AQSh va Kanada XX asrning birinchi yarmida oliy ta'limning qamrovi kengaydi.

Sotsiolog Martin Trow[2] butun dunyoda oliy ta'lim rivojlanishining uchta asosiy bosqichini – elita, ommaviy va universal bosqichlarni belgilab berdi. U ko'pchilik mamlakatlar turli vaqtlarda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limda ommaviy yoki umumbashariy ishtirok etishga intilishini ta'kidladi va keyinchalik uning fikrlari o'z isbotini topdi. U akademik standartlarning umumiy pasayishi, aholining ijtimoiy harakatchanligini oshirish, oliy ta'limni moliyalashtirishning yangi shakllari, aksariyat mamlakatlarda oliy ta'lim tizimini diversifikatsiya qilish va boshqa tendensiyalarni o'z ichiga oladi. Inqilobning butun jamiyatga ta'siri hali ham davom etmoqda, ammo bu jihat, shubhasiz, oliy ta'limga kuchli ta'sir qiladi. Texnologiya fan va ta'limga, o'qitish jarayoniga va masofaviy ta'lim olish imkoniyatiga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Texnologiyalar ta'siri ostida universitetlarning ichki boshqaruv jarayoni ham o'zgarimoqda.

XXI asrda paydo bo'lgan bilimlar iqtisodiyoti Altbach Ph. G. va Reisberg L. kabi olimlarning fikriga ko'ra yuqori malakali mutaxassislarning global harakatchanligini oshiradi [3].

O'z navbatida akademik harakatchanlik globallashuv davrining o'ziga xos belgisidir. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish uchun oliy ma'lumotli insonlarning sonini oshirish lozim. Oliy ma'lumotli insonlar esa inson kapitalining oshishiga olib keladi. Ushbu kapital, shaxsning mulki bo'lib, ayni paytda jamoat mulki hisoblanadi[4].

Ommaviy oliy ta'lim tizimida tobora ortib borayotgan talabalarni o'qitishni faqat hukumatning o'zi emas (ta'limning umrbod foydasini hisobga olgan holda) talabalar va oilalar moliyaviy yukning bir qismini o'z zimmlariga olishlari kerakligi ayon bo'lmoqda. Bu omillar davlat universitetlarini xususiylashtirishning jadallashuviga va shu munosabat bilan dunyoda xususiy oliy ta'lim ulushining keskin oshishiga olib keldi [5].

Shu bilan birga, turli mamlakatlar hukumatlarining universitetlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash jamg'armalari, universitetlar tomonidan amalga oshiriladigan loyiha faoliyatini tashkil qilishga yordam berish, oliy o'quv yurtlari xodimlarini qayta tayyorlash uchun mablag'lar ajratish kabilarning barchasi ko'p jihatdan oliy ta'lim tizimiga jahon iqtisodiy inqirozining salbiy ta'siriga qarshi turishga yordam beradi[6].

Oliy ta'lim tizimi 20-asrdan boshlab bugungi kungacha kengayib kelmoqda. Hozirgi vaqtda dunyoda eng katta va uchinchi yirik akademik tizim bo'lgan Xitoy va Hindiston jadal rivojlanmoqda[7].

Tadqiqot metodikasi. Mazkur tadqiqot ishini olib borishda mantiqiy fikrlash, statistik tahlil, kuzatuv va qiyosiy tahlil, abstrakt fikrlash hamda analiz va sintez kabi usullardan foydalanilgan. Mavjud metodologik yondoshuvlarga tayangan holda ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi. 1998 yilda YUNESKO ning oliy ta'lim bo'yicha Butunjahon konferensiyasi o'tkazildi. Ushbu konferensiyaning maqsadi keyingi o'n yillikda butun dunyoda oliy ta'limni rivojlantirishning asosiy tendentsiyalarini umumlashtirishdan iborat edi. Mazkur tadqiqotning obyektini global akademik makonni shakllantirish, tadqiqot mavzusi esa universitetlarning global reytinglari va ularning oliy ta'lim tizimidagi ahamiyati bo'lgan. Tadqiqot maqsadlari Oliy ta'lim tizimidagi "massifikatsiya" tushunchasining mohiyatini oydinlashtirish va Oliy ta'limning inklyuzivligini oshirishning mumkin bo'lgan tendensiyalarini ko'rib chiqish edi. Oradan 24 yil o'tib, Oliy ta'limning kelajagini shakllantirish maqsadida, 2022-yil 18-20-may kunlari YUNESKO tomonidan Ispaniyaning Barselona shahrida uchinchi Butunjahon oliy ta'lim konferensiyasi (WHEC2022) bo'lib o'tdi va unda kelgusi o'n yil ichida oliy ta'lim bo'yicha yangi tasavvurlar ishlab chiqildi.

Ushbu konferensiya dastlab 2021 yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan edi, biroq Global sog'liqni saqlash inqirozi tufayli, 2022 yil 18-20 may kunlari o'tkazildi. Konferensiyada universitetlar, hukumatlar, ko'p tomonlama muassasalar, xususiy sektor va fuqarolik jamiyatining 1500 dan

ortiq ishtirokchilari kelgusi o'n yillikning umumiy global harakatlar rejasi bo'yicha tajriba va g'oyalar bilan o'rtoqlashish maqsadida qatnashdilar.

XXI asrda Bilimlar iqtisodi paydo bo'ldi. Ushbu iqtisodiyotning ko'plab ko'rinishlari, jumladan, biotexnologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi xizmat ko'rsatish sohasining o'sib borayotgan roli oliy ta'limning ahamiyatini oshirishga olib keldi. Ishchi kuchining o'sib borayotgan segmentlari oliy ta'lim muassasalari orqali taqdim etiladigan qo'shimcha ta'limni talab qiladi. Mazkur masalalar yuzasidan tadqiqotlar o'tkazildi va ularning aksariyati universitetlarda olib borildi, tadqiqotlarning ko'lami va ahamiyati kengaydi. Bundan tashqari, bilimlar iqtisodiyoti yuqori malakali mutaxassislarining global harakatchanligini oshiradi.

Akademik harakatchanlik globallashuv davrining o'ziga xos belgisidir. Bugungi kunda talabalar va o'qituvchilar uchun global bozor mavjud. 1998-yilda o'tkazilgan konferensiyada kamida 2,5 million talaba o'z mamlakatidan tashqarida tahsil olishi, ammo chet elda o'qitadigan akademiklar soni haqida ishonchli statistik ma'lumotlar yo'q ekanligi aytilgan bo'lsa, 2022-yilda o'tkazilgan konferensiyada dunyo bo'ylab 6 million talaba o'z mamlakatidan boshqa mamlakatda o'qishni davom ettirayotgani ta'kidlandi. 2025 yilga kelib ularning soni 8 millionga yetadi. Bugungi kunda dunyo bo'ylab 235 million talaba oliy o'quv yurtlarida tahsil olmoqda va bu raqam so'nggi 20 yil ichida ikki baravar ko'paydi, keyingi o'n yil ichida yana ikki baravar ko'payishi kutilmoqda.

Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonda 2022/23 o'quv yili boshlangan paytda talabalarining umumiy soni 1 040 400 nafarga yetgan. 2021 yilning 1 yanvar holati bo'yicha YUNESKO ning Statistika instituti ma'lumotlariga ko'ra, xorijda tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar soni 85,9 ming nafarni tashkil etgan, 2019-2020 o'quv yilida O'zbekistonda talabalarining soni 808 ming 400 nafar ekani ma'lum qilindi.

Ushbu o'sib borayotgan talabni hisobga olgan holda, qanday qilib barqaror rivojlanish kabi asrimizning qiyinchiliklariga moslashtirilgan sifatli oliy ma'lumotni taqdim etishimiz mumkin? Dunyo bo'ylab akademik harakatchanlikni qanday qo'llab-quvvatlashimiz mumkin? COVID-19 pandemiyasidan qanday saboq olishimiz mumkin? Bu savollar 2022-yil 18-20-may kunlari Ispaniyaning Barselona shahrida o'tkazilgan YUNESKOning uchinchi Jahon Oliy ta'lim konferensiyasining diqqat markazida bo'ldi.

Qayd etish joizki, COVID-19 pandemiyasi oliy ta'lim tizimlari uchun sinov bo'ldi, oliy ta'lim

tizimi koronavirus pandemiyasi sababli sifatning pasayishi va tengsizlikning kuchayishi kabi yangi muammolarga duch keldi. Shuningdek, pandemiya davlat tomonidan moliyalashtirish ko'proq bo'lgan mamlakatlarda oliy ta'lim tizimi global inqirozlarga nisbatan bardoshliroq bo'lib, ta'lim jarayonining uzluksizligi va iloji boricha ko'proq talabalar uchun ta'lim olish imkoniyatini ta'minlay olishini ham ko'rsatdi. Shu munosabat bilan, YUNESKO davlatlarni Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish to'g'risidagi Global konvensiyani ratifikatsiya qilishga chaqirdi. Universitetlararo hamkorlik va transchegaraviy akademik tadqiqotlarni mustahkamlashga qaratilgan ushbu hujjat 14 ta davlat tomonidan ratifikatsiya qilgan.

Oliy ta'lim uchun yo'l xaritasini ishlab chiqish maqsadida konferensiyada 2030 yilgacha quyidagi mavzular ko'rib chiqildi:

- 1) COVID-19 pandemiyasining oliy ta'limga ta'siri;
- 2) oliy ta'lim va barqaror rivojlanish maqsadlari;
- 3) inklyuzivlik;
- 4) dasturlarning sifati va dolzarbligi;
- 5) akademik harakatchanlik;
- 6) boshqaruv;
- 7) moliyalashtirish;
- 8) ma'lumotlar va bilimlarni tayyorlash;
- 9) xalqaro hamkorlik;
- 10) oliy ta'limning kelajagi.

So'nggi 20 yil ichida Janubiy Afrika, Markaziy Osiyo, Janubiy va Janubi - Sharqiy Osiyo kabi mintaqalarda talabalar soni ikki baravar ko'paygan. Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo, Lotin Amerikasi va Karib dengizi mamlakatlarida oliy ma'lumot 40 foizdan 50 foizgacha qamrab olingan. Markaziy va Janubiy Osiyoda esa ushbu ko'rsatkich atigi 25 foizni, Sahroi Kabir va Janubiy Afrikada esa 9 foizni tashkil qiladi.

Oliy ma'lumotli insonlarning sonini oshirish uchun ta'lim olish imkoniyatini kengaytirish zarur, ammo bu, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda katta logistika va byudjet o'zgarishlarini talab qiladi. Ko'pgina shaharlarda talabalar va ularning oilalarining moliyaviy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadigan o'quv to'lovlari va boshqa bilvosita xarajatlarning ko'payishi tendentsiyasi mavjud. Oliy ma'lumot nafaqat texnologik o'zgarishlar dunyosida ishlay oladigan hamda tanlov va qaror qabul qilish holatlariga duch keladigan milliy iqtisodiyot uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan bog'liq, balki bu o'zlarining hayotiy manfaatlariga ta'sir qiladigan yangi ijtimoiy texnologiyalar dunyosida harakat qila oladigan va boshqa ko'plab odamlarni tayyorlash bilan ham bog'liq. Oliy ma'lumotga ega bo'lgan kishi nafaqat

mutaxassisga aylanadi, balki o'z bilim va ko'nikmalarini oshirish orqali inson kapitalini ham oshiradi.

So'nggi yillarda Oliy ta'limni moliyalashtirish va ommaviy oliy ta'limni qo'llab-quvvatlash yo'llarini muhokama qilishda tub o'zgarishlar ro'y berdi, biroq Sharqiy Osiyoning ba'zi davlatlarida oliy ta'lim uzoq vaqtdan beri davlatning mas'uliyati sifatida qaralib, "jamoat manfaati" hisoblangan. Chunki, universitetda ta'lim unumdorligini oshirish, milliy maqsadlarga erishish va boshqa omillar nafaqat shaxsga, balki jamiyatga ham foyda keltiradi.

Biz guvohi bo'lgan jahon iqtisodiy inqirozi davrida oliy ta'lim tizimi va umuman jamiyatda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Aksariyat oliy ta'lim muassasalari jiddiy moliyaviy muammolarga duch kelishdi. Universitetlarda xarajatlarni kamaytirish uchun taqdim etilayotgan xizmatlar sifati yomonlashishi mumkin. Buning sababi oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarning yuklamasini oshirish hisobiga byudjet mablag'larini tejashga majbur bo'lishadi, chunki yangi professor-o'qituvchilarni ishga olish iqtisodiy jihatdan foydali bo'lmaydi. Iqtisodiyot rejimi universitetlar shaharchalarida yangi obyektlar qurish, axborot texnologiyalarini joriy etish, ilmiy kutubxona fondlarini to'ldirish kabilarga ta'sir qiladi. Kelajakda o'z farzandlarini xorijiy universitetlarga o'qishga yuborayotgan oilalaridagi daromadlarning kamayishi hisobiga chet ellik talabalar sonining qisqarishini kutishimiz mumkin. Inqirozning haqiqiy oqibatlarini, shuningdek, uning davomiyligini hisoblash qiyin.

Oliy ta'lim tizimi 20-asrning oxirida kengaya boshladi va bugungi kunda ham davom qilmoqda. Oliy ta'lim tizimining qamrovi ortishi so'nggi bir necha o'n yilliklardagi ko'plab asosiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Nima uchun oliy ta'lim so'nggi yarim asrda tez sur'atlar bilan kengaydi? Ushbu savolga javoblar xilma-xil va ular dunyo bo'ylab ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Bunga jamoatchilik talabining yuqori ekanligi ham asosiy sabab bo'lishi mumkin. Ko'pgina mamlakatlarda oliy ta'lim ijtimoiy harakatchanlik va iqtisodiy muvaffaqiyatning zaruriy sharti sifatida qaralmoqda.

Urushdan keyingi davr butun dunyoda chuqur iqtisodiy o'zgarishlarga guvoh bo'ldi. Ko'pgina mamlakatlar postindustrial iqtisodlarga o'tdilar, bu ko'plab kasblar uchun ko'proq oliy ma'lumotli mutaxassislarni talab qiladi. Hatto an'anaviy iqtisodiyotlar ham texnologiyadagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda yuqori ma'lumotli ishchilarga muhtoj. Eng samarali va nufuzli kasblar doimo oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni talab qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasi va bilimlar iqtisodiyotining o'sishi, ijtimoiy o'zgarishlar bilan birgalikda oliy ta'limga bo'lgan talabning oshishiga sezilarli hissa qo'shdi. Ushbu davrning ko'p qismida butun dunyo bo'ylab aholining umumiy o'sishi kuzatildi.

Bundan tashqari, dunyoning aksariyat mamlakatlari qishloqdan shaharga ko'chib o'tdilar. Shahar aholisi odatda ta'lim olish imkoniyatiga ega va yuqori malakali ishlarga ko'proq e'tibor qaratadi. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida muhim ijtimoiy o'zgarishlar ro'y berdi. Mustamlakachilik davri nihoyasiga yetdi, Afrika va Osiyoning yangi mustaqil davlatlarida aholi siyosiy va ijtimoiy taraqqiyotni talab qilish huquqiga ega bo'ldi. Ushbu o'zgarishlar barcha darajadagi ta'limga, shu jumladan oliy ta'limga ega bo'lish bilan bog'liq.

Ayni paytda ayollar oliy ta'lim olish huquqini tasdiqlay boshladilar va birinchi navbatda rivojlangan mamlakatlarda, keyin esa boshqa mamlakatlarda ommaviy ta'limning muhim benefitsiarlariga aylandilar. 1980-yillarga kelib, dunyoning aksariyat mamlakatlarida ayollar erkaklar bilan tenglikka erishdilar va ayrim mamlakatlarda ularning soni erkaklarnikidan oshib ketdi. Qo'shma Shtatlar ommaviy oliy ta'limga erishgan birinchi davlat bo'ldi. 1960 yilda yosh guruhining 40 foizi kasbiy ta'limda qatnashgan. Ko'p o'tmay, Kanadada ommaviy ishlab chiqarishga erishildi. G'arbiy Yevropa va Yaponiyada 1980-yillarda jadal o'sish kuzatildi, undan keyin Sharqiy Osiyoning rivojlangan mamlakatlari (masalan, Koreya Respublikasi va boshqalar) tez sur'atlar bilan o'sdi. Bu davrda Lotin Amerikasi ham keskin rivojlanishni boshdan kechirdi. So'nggi o'n yil ichida shunga o'xshash kengayish boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda ham sodir bo'ldi.

Aksariyat mamlakatlarda, shuningdek, yangi talabning bir qismini o'zlashtirgan oliy ta'limda xususiy sektor o'sib borayotganini ko'rish mumkin. Darhaqiqat, xususiy muassasalarga ko'p sonli talabalarni qabul qiladigan mamlakatlar soni ortib bormoqda. Jumladan, mamlakatimiz O'zbekistonda ham xususiy oliy ta'limning ulushi sezilarli tarzda kengaydi va bugungi kunda 209 ta oliy ta'lim muassasasi mavjud bo'lsa, ularning 65 tasi xususiy oliy ta'lim muassasalaridir. Davlatning asosiy vazifasi bu muassasalar faoliyati uchun yetarli sharoit yaratishdan iborat. Aholining oliy ta'lim tizimida bilim olishga ommaviy kirishining oqibatlari, shubhasiz, kelgusi davrda ham ustunlik qiladi. So'nggi bir necha o'n yilliklarda zamonaviy jamiyatda oliy ta'limning roliga oid turli nuqtai nazarlar faol muhokama qilindi. Oliy ta'lim an'anaviy ravishda jamiyat uchun ham, alohida talabalar uchun ham qadrlil bo'lgan jamoat manfaati sifatida

qaralib kelgan va shuning uchun uni qo'llab-quvvatlash hamda moliyalashtirish asosan davlat zimmasiga yuklangan.

Yangi XXI asr oliy ta'limni yanada raqobatbardosh korxonaga aylantirdi. Ko'pgina mamlakatlarda talabalar universitetga kirishda qabul qilinuvchilar soni kamligi uchun ko'p abituriyent bilan raqobat qilishga majbur bo'lishdi va barcha mamlakatlarda oliy ta'limga kirish qiyinlashdi. Olimlar ish o'rinlari uchun raqobatlashadilar va yuqoriroq umidlar, katta mas'uliyat sharoitida ish joylarini saqlab qolish uchun ko'proq vaqt ishlaydilar.

Xususiy sektor bilan integratsiyaga ehtiyoj ortib bormoqda. Tadqiqot mahsulotlari, ayniqsa hayot haqidagi fanlar va biotibbiyot fanlari bozor bilan chambarchas bog'langan hamda universitetlar xususiy moliyalashtirish uchun raqobatlashadi. Tadqiqot ko'pincha korporativ manfaatlar bilan bog'liq bo'lib, maqsad universitet va xususiy sherik uchun foyda keltirishdan iborat (Fallis, 2007; Washburn, 2005). Universitetlar, avval aytib o'tilganidek, maqom va reyting uchun, qoida tariqasida, davlat yoki xususiy manbalardan moliyalashtirish uchun raqobatlashadilar [8].

Butun dunyoda mamlakatlar akademik maqom, xalqaro va yetakchi olimlar uchun raqobatlashmoqda. Milliy oliy ta'lim siyosatini ishlab chiqishda reytinglar va liga jadvallari muhim ahamiyat kasb etdi. Mamlakatlar ichida reytinglar milliy ierarxiyaga hissa qo'shadi. Ba'zi mamlakatlarda davlat va xususiy sektor o'rtasida raqobat mavjud. Raqobat har doim ilm-fanda katta kuch bo'lib kelgan va mukammallikka hamda yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi. Ammo bu akademik hamjamiyatning missiya hissi va an'anaviy qadriyatlariga putur yetkazishi mumkin [9].

Ilmiy-tadqiqot universitetlari akademik tizimda alohida o'rin tutadi. Ular o'z jamiyatlarining elitesini tayyorlashga va akademik kasbda, shuningdek, tibbiyot va huquq sohalarida ilg'or ta'lim berishga moyildirlar. Shunday qilib, tadqiqot universitetlari boshqa ommaviy oliy ta'lim tizimidan ajratilgan maxsus muassasalar sifatida tushuniladi. Ularning xalqaro va milliy maqsad hamda vazifalari ham mahalliy akademik hamjamiyat, ham xalqaro bilimlar tarmog'i bilan bog'langan.

Universitetning asosiy mas'uliyatini tadqiqot va o'qitish tashkil qilsa-da, tadqiqot funksiyasi doimiy ravishda yetakchi tadqiqot universitetlarining asosiy roli sifatida namoyon bo'ladi. Garchi tadqiqot universitetlari milliy tizimlarda alohida maqom talab qilsa-da, ular global bilimlar tarmog'iga havola ham hisoblanadi [10].

Tadqiqot universitetlari nafaqat rivojlangan mamlakatlar, balki global bilimlar tarmog'ida

ishtirok etuvchi rivojlanayotgan va o'rta daromadli mamlakatlar ehtiyojariga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'proq mavjud, ammo butun dunyoda doimiy muammo hisoblanadi. Bugungi kunda moliyalashtirish tobora raqobatbardosh bo'lib bormoqda. Tadqiqotchilar ko'pincha mukofotlar uchun raqobatlashishlari talab qilinadi. Yuqori xarajatlar, sanoat va biznes tomonidan qo'llab-quvvatlanish ehtimoli kamligi sababli asosiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash qiyin bo'lmoqda va davlat har doim ham yetarli moliyalashtirishni amalga oshira olmaydi.

Intellektual mulk bugungi kunda oliy ta'limda va ayniqsa tadqiqot universitetlarida tobora ortib borayotgan muammodir. Kim bilimga ega va kim tadqiqotdan foyda ko'rishi haqidagi asosiy savollar bu munozarada markaziy o'rinni egallaydi. Daromadlarni ko'paytirish maqsadida universitetlar intellektual mulkni, ya'ni patent va litsenziyalarga olib keladigan tadqiqot natijalarini himoya qiladi. Bu ko'pincha universitetlar va homiy-lar o'rtasida nizolarga olib keladi, ular ilmiy tadqiqotlarni doimiy nazorat qilish va undan o'z manfaatlari yo'lida foydalanish imkoniyatini talab qiladi. Natijada bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda intellektual mulk masalalariga e'tibor kuchaymoqda. Ayniqsa, masofaviy ta'lim kurslari universitetlar va o'qituvchilar uchun daromad manbai hisoblanadi. Ushbu kurslarga kim "egallik qiladi" va ulardan kim moliyaviy foyda ko'rishi mumkin, degan savol mavjud va u jiddiy bahs-munozarlarga sabab bo'lmoqda. Xuddi shunday, elektron formatda tarqatiladigan bilimlardan olinadigan daromadlar bilan bog'liq muammolar ham mavjud.

Intellektual mulkka egalik qilishning bahsli huquqi davlat va xususiy mulk o'rtasidagi ziddiyatni aks ettiradi. Ko'pchilik universitet bilimlarini hech qanday cheklovlarsiz olish kerakligini ta'kidlaydi. Biroq, ko'pchilik siyosatchilar tadqiqotlar universitet uchun katta daromad keltirishi zarur deb hisoblashadi. Bu masalalar ilmiy va siyosiy doiralarda faol muhokama qilinmoqda. Universitetlar va sanoat o'rtasidagi aloqalar intellektual mulkka nisbatan qo'shimcha keskinlikni keltirib chiqaradi, chunki bu kelishuvlar, ayniqsa biotexnologiya kabi yangi sohalarida patentlar va litsenziyalar bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi [11].

Intellektual mulk nihoyatda muhim, ammo murakkab masalaga aylandi. Murakkab universitet tadqiqotlari bilimlarni tijoratlashtirish uchun moliyachilar bosimi ostida olib boriladi. Biroq, shu bilan birga, bilimlarni ishlab chiqarish va tarqatishni davlat manfaati sifatida ko'rish uchun

qarshi bosim mavjud. Tadqiqot universitetlari akademik tizimdagi eng ko'zga ko'ringan va eng qimmat muassasalardir. "Flagmanlar" sifatida ular o'zlari joylashgan mamlakatni obro'-e'tibor va xalqaro shuhrat bilan ta'minlaydilar. Bu universitetlar bilim yaratadi va tarqatadi hamda sanoat va tijoratga xizmat qiladi [12].

Xulosa va takliflar. Ta'limning globallashuvi turli mamlakatlarda ta'lim olish imkoniyati va zarurligini, fanlar majmuasi va ularni ta'minlovchi professor-o'qituvchilarning potentsial tanlovini kengaytirishni nazarda tutadi. Globallashuv davridagi zamonaviy oliy ta'limning o'ziga xos xususiyati uning baynalmilallashuvidir. Ta'limning baynalmilallashuv jarayoni ma'lum rivojlanish davrlariga ega bo'lgan tarixiy hodisadir. U xalqaro diplom dasturlarini amalga oshirish imkonini berdi. Ko'plab universitetlar qator xorijiy mamlakatlarda o'z filiallarini ochish, hamkorlik aloqalarini o'rnatish, shuningdek, jahon miqyosidagi turli loyihalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega. Ushbu bosqichda talabalarning katta qismi chet elda oliy ta'lim olish, ingliz tili bo'yicha bilimlarini oshirish imkoniyatiga ega bo'lib, bu ularga xalqaro ilmiy loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etish imkonini beradi. Shu bilan birga, immigratsiya jarayonini liberallashtirish turli bilim sohalaridan yuqori malakali mutaxassislarning yuqori daro-

madli mamlakatlarga chiqib ketishining kuchayishiga olib keladi, bu ularning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, lekin daromadlari past bo'lgan mamlakatlarning iqtisodiy raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir qiladi. Xalqarolashtirish ko'p milliard dollarlik foyda keltiradigan biznesga aylanganini, buning natijasida bu jarayon nafaqat ishtirokchi universitetlar, balki ushbu universitetlar joylashgan davlatlar tomonidan ham keng qo'llab-quvvatlanganini ta'kidlamaslik mumkin emas.

Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim jahon iqtisodiyoti ehtiyojlarini hisobga olishi kerak. Shu bilan birga, oliy o'quv yurtlari oldida turgan asosiy vazifa, yuqorida aytib o'tganimizdek, nafaqat o'z-gargan dunyoni, balki bu dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlarni yoki kelajakdagi o'zgarishlarni boshqarish uchun mutaxassislarning keyingi avlodini tayyorlashdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, oliy ta'limning bu jihati barcha mamlakatlar uchun umumiydir, garchi ular ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli darajalarida bo'lsa-da, chunki har qanday davlatda va har qanday holatda o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Globallashuv jarayoni jahon akademik tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, uning ta'sirining oqibatlarini to'liq tushunilmagan, shuning uchun u ilmiy jamoatchilik tomonidan diqqat va chuqur tahlilga loyiqdir.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Glebov G. I., Milaeva O. V. *Sovremennye mejdunarodnye otnosheniya. Uchebnoe posobie.* – Penza: [Izd. Penz. gos. universiteta](#), 2010. – 98 s.
2. Trow M. (2006). *Reflections on the transition from elite to mass to universal access: Forms and phases of higher education in modern societies since World War II* // J. J. F. Forest, Ph. G. Altbach (eds). *International handbook of higher education. Dordrecht, Netherlands: Springer.* P. 243–280. (Первоначальный вариант работы опубликован в 1973 г.)
3. Altbach Ph. G., Reisberg L., Rumbley L. E. (2010). *Trends in global higher education: Tracking an academic revolution.* Rotterdam, Netherlands: Sense.
4. Abdikarimov I. *Innovatsion iqtisodiyotda inson kapitalining tutgan o'rni.* – 2024.
5. Chomsky N., Katznelson I., Lewontin R. C. et al. (1997). *The Cold War & the university: Toward an intellectual history of the postwar years.* N.Y.: New Press.
6. Friedman T.L. (2005). *The world is flat: A brief history of the twenty-first century.* N.Y.: Farrar, Strausand Giroux (rus. per.: Фридман Т. Плоский мир: Краткая история XXI века / пер. М. Колопотина. М.: АСТ: Хранитель, 2006).
7. Altbach, P.G., Reisberg, L. and Rumbley, L.E. (2009) *Trends in Global Higher Education: Tracking an Academic Revolution.* UNESCO 2009 World Conference on Higher Education, Paris, 5-8 July 2009.
8. Lowen R. S. (1997). *Creating the Cold War University: The transformation of Stanford.* Berkeley: University of California Press.
9. Nye J. S., Jr. (2004). *Soft power: The means to success in world politics.* N.Y.: Public Affairs (rus. per.: Най Дж. С. Гибкая власть / пер. В. Супруна. Новосибирск. М.: Тренды, 2006).
10. Page M. (2002). *The first global village: How Portugal changed the world.* Lisboa, Portugal: Editorial Notnca.
11. Trow M. (2006). *Reflections on the transition from elite to mass to universal access: Forms and phases of higher education in modern societies since World War II* // J. J. F. Forest, Ph. G. Altbach (eds). *International handbook of higher education. Dordrecht, Netherlands: Springer.* P. 243–280. (Первоначальный вариант работы опубликован в 1973 г.)
12. Wildavsky B. (2010). *The great brain race: How global universities are reshaping the world.* Princeton, NJ: Princeton University Press.
13. Sherov A. B. et al. *Current issues of financing higher education institutions in the condition of an innovative economy //Gospodarka i Innowacje.* – 2022. – T. 21. – С. 127-130.
14. Kuziboev B. et al. *The Role of Renewable Energy and Human Capital in Reducing Environmental Degradation in Europe and Central Asia: Panel Quantile Regression and GMM Approach //Energies.* – 2023. – T. 16. – №. 22. – С. 7627.
15. <https://oliygoh.uz/post/nechta-oliy-talim-muassasasi-bor>
16. https://t.me/statistika_rasmiy/3289